

*Avazova Zebuniso Salayevna**Urganch Ranch texnologiya universiteti**O'zbek va xorijiy tillar kafedrası o'qituvchisi*

INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN IQTISODIY LEKSIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotasiya: Zamonaviy tilshunoslikda xorijiy davlatlar iqtisodiyot sohasiga oid terminlarni tilshunoslik satxi doirasida til leksikasining bir qismini tashkil qilib, ma'naviy va mazmuniy xususiyatlari bilan ajralib turadi va albatta ushbu leksik birliklarni o'zbek tilshunosligida qo'llanilishini o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Maqolada ingliz tilidagi iqtisodiyot sohasi oid leksik birliklarning shakllanishi, rivojlanishi va o'ziga xos derivatsion xususiyatlari, hamda o'zbek tiliga o'zlashish jarayonlari tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, leksik birlik, terminosfera, derivatsiya, so'z o'zlashtirish.

Annotation: In modern linguistics, the economic terminology of foreign languages is viewed as part of the lexicon of a language, characterized by its unique content and structural traits. The study of how these lexical units are utilized in Uzbek linguistics is undoubtedly a relevant topic today. This article explores the formation, evolution, and distinctive derivational features of economic terms in the English language, as well as their assimilation into Uzbek.

Key words: term, terminology, lexical unit, terminosphere, derivation, word acquisition.

Аннотация: В современной лингвистике экономическая терминология зарубежных стран рассматривается как часть лексикона языка с лингвистической точки зрения, отличающаяся своим содержанием и структурными особенностями, и конечно, изучение использования этих лексических единиц в узбекской лингвистике является одной из актуальных проблем современности. В данной статье рассматриваются формирование, развитие и специфические деривационные особенности лексических единиц, связанных с областью экономики в английском языке, а также процессы ассимиляции в узбекском языке.

Ключевые слова: термин, терминология, лексическая единица, терминосфера, деривация, усвоение слов.

Kirish. Terminologiya sohasidagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tarixiy va zamonaviy iqtisodiyot terminlarining shakllanishi va yaratilish jarayonlari deyarli bir xil. Ushbu terminlarning o'ziga xos derivatsion xususiyatlari iqtisodiy terminologiya tizimining shakllanishi va rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ingliz tilshunoslarining derivatsiya jarayonining terminologik tizimni shakllantirishdagi ahamiyatini o'rgangan zamonaviy tadqiqotlari orasida Uilyam Kroft va Alan Kruz, Viven Evans va Melani Grin, Dirk Giraert va Xyubert Kaykens hamda Zeki Namavand kabi olimlarning ishlari alohida e'tiborga loyiq.

Adabiyotlar sharxi. Tilshunoslikda so'z o'zlashtirish jarayoni derivatsiya jarayonlaridan biri sifatida keng o'rganilgan bo'lib, L.P. Krisinning ta'kidlashicha: "Bu jarayon, odatda, ikki til o'rtasida uzoq muddat davom etgan aloqalar natijasida bir til unsurlarining boshqasiga o'tishi sifatida izohlanadi." So'z o'zlashtirish ko'pincha derivatsiya jarayonlariga o'xshashlik kasb etadi, bu esa terminlarning xilma-xilligi, tuzilishi va semantik xususiyatlarini belgilaydi. Mazkur jarayonlar – o'zlashtirish va termin yasash – ba'zan bir vaqtda sodir bo'lishi mumkin.

Iqtisodiyot terminlari ham xuddi leksik birliklar singari ikki asosiy jarayon – semantik derivatsiya va so'z yasash orqali shakllanadi. L.Yu. Buyanovanning fikriga ko'ra, derivatsiyaning

asosiy jihatlaridan biri sifatida terminlarni yaratishda qo'llaniladigan morfologik, leksik-semantik va leksik-sintaktik usullarni ko'rsatish mumkin.

Terminologiyaning har bir elementi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, termin yaratishda muhim rol o'ynaydi. S.V. Shvetsova o'z tadqiqotida ingliz tili terminlarining shakllanish usullari va ularning ishlatilish chastotasini tahlil qilib, eng faol usul sifatida suffiksalar yordamida amalga oshiriladigan morfologik termin yaratish jarayonini qayd etadi.

Muhokama va natijalar. Ingliz iqtisodiyot terminologiyasi mahalliy va o'zlashgan qatlamlarga asoslanadi. Masalan, I.Yu. Bulgakova "contract" va "agreement" terminlari misolida ingliz tiliga hamda boshqa roman-german tillariga o'zlashma so'zlarning kirib kelish jarayonini tasvirlaydi. Muallifning yozishicha, "Kontrakt termini asosiy ma'nosiga ko'ra tomonlarning o'zaro majburiyatlarini aks ettiruvchi shartnoma yoki kelishuv hisoblanadi." U XIV asrda majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlash yoki noto'g'ri talqin qilishning oldini olish maqsadida shartlarni yozma shaklda belgilash zarurati tufayli paydo bo'lgan jarayon sifatida ta'riflanadi va qadimgi Rimdan hozirgi kungacha global amaliyotda keng tarqalgan.

"Contract" leksemi lotincha contractus va contrahere (birlashtirish, kelishmoq, shartnoma tuzmoq) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, con- (birga, bilan) prefiksi va trahere (olmoq, cho'zmoq, qiziqtirmoq) fe'lidan hosil bo'lgan. Bu termin keyinchalik boshqa ko'plab terminlar yasaliishi uchun asos bo'lib xizmat qilgan. O'rta asrlarda lotin tili ruhoniylar, shifokorlar, olimlar va yuristlar uchun funksional til bo'lganini hisobga olsak, ingliz va boshqa Yevropa tillariga lotincha o'zlashmalar kirib kelganligi tabiiy hol hisoblanadi. Bunga yorqin misol sifatida talaffuzi va yozuvi deyarli o'zgarmagan "kontrakt" terminini keltirish mumkin: bu atama ingliz, o'zbek, nemis va rus tillarida "kontrakt", italyan tilida esa "contratto" shaklida qo'llanadi.

"Agreement" termini esa "tomonlarning biror narsani bajarish bo'yicha kelishuvi yoki va'dasi" ma'nosini anglatadi. Bu atama lotincha ad-gre (iroda, istak, rohatlanish) va gratus (yoqimli) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, XV asrda fransuz tili orqali paydo bo'lgan. Shuningdek, "agreement" atamasi "contract" so'zining sinonimi hisoblanadi. Ammo "agreement"dan farqli ravishda, bugungi kunda "contract" asosida iqtisodiyot sohasida faol qo'llaniladigan bir qator terminologik birikmalar yaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan xolda misol tariqasida iqtisodiy terminlarning ko'p ulushini xorijiy tillar ya'ni lotin, fransuz, ispan tillaridan o'zlashgan so'zlar hosil qiladi: default (defolt), tranche (trانش), capital (kapital), budget (byudjet), tax (soliq), commerce (kommersiya, tijorat), deficit (defitsit, kamomad), arbitrage (arbitraj), finance (moliya), deposit (deposit), bureaude change (ayriboshlash shahobchasi), bordereau (ro'yxat), border (batafsil ro'yxat, ayniqsa, hujjatlar yoki qimmatbaho qog'ozlar ro'yxati).

Lotin va grek tilaridan ingliz tiliga: audit (audit), analysis (analiz, tahlil), auction (auksion) coalition (koalitsiya), segregation (mijoz operatsiyalari bo'yicha bo'linish), commission (komissiya), capital (kapital), deposit (deposit), deficit (kamomad), deflation (deflyatsiya), dividend (divident), debit (debit), economy (ekonimika, iqtisod), emission (emissiya), export (eksport) so'zlari kirib kelgan.

Ingliz iqtisodiyot terminologiyasidagi o'zlashmalar XI asrdagi Normand bosqini davridan boshlab XIX-XX asr boshlarigacha bo'lgan davrni, shuningdek, Britaniya mustamlakalari tillari, jumladan, Afrika va Osiyo tillaridan qabul qilingan atamalarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon ingliz tili lug'at tarkibining shakllanishidagi tarixiy qonuniyatlarni aks ettiradi. Masalan, "tariff" (tarif) iqtisodiy tushunchasi ingliz tiliga arabcha tariff (xabarnoma) so'zidan, fransuz tili orqali kirib kelgan. O'rta asrlarda O'rta yer dengizi mintaqasida ushbu so'z savdogar kemalarida tuziladigan

o'ziga xos jadvalni anglatgan bo'lib, unda ortilgan yuklarning tasdiqlangan ro'yxati, sotiladigan tovarlarning miqdori va qiymati ko'rsatilgan.

Xulosa. Iqtisodiyot terminologiyasini tadqiq qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va rus tillaridan leksik-semantik yo'l bilan o'zlashtirish yoki kalkalash soha terminologik tizimini boyitishda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida rus tilidan to'liq kalkalash holati ko'p uchraydi, bu esa iqtisodiyot terminlarining tarixiy rivojlanishi bilan izohlanadi.

Chog'ishtirilayotgan ikki til-ingliz va rus tillaridagi zamonaviy iqtisodiyot leksik birliklari tarkibida italyan, fransuz, grek, lotin, fors, arab va boshqa tillardan kirib kelgan terminlar alohida tasnif va xususiyatlarga ega. Hozirgi davrda o'zbek tilidagi iqtisodiyot terminologiyasining ilmiy tahlili shuni aniqladiki, bu sohadagi zamonaviy tushunchalarni forsiy va arabiy terminlar yetarlicha ifoda qila olmayapti. Natijada rus va G'arbiy Yevropa tillarining ta'siri va ustunligi o'zbek iqtisodiy terminologiyasida yaqqol sezilib turibdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Тасев С.Б. Терминология консервной промышленности: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Л., 1975. –С. 22.; Сперанская Н.Н. Лесохозяйственная терминология: Дисс. ...канд. филол. наук. – Л., 1984. – 197 с.
2. Кутарева Л.В. Лексико-семантический способ образования научно-технических терминов // Вопросы общего и славянского языкознания. – Днепропетровск, 1976. – С.124-129.
3. Сербиновская Н.В. Формирование и развитие терминологического поля “маркетинг” в русском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.-Ростов-на-Дону, 2008.-25с.
4. Сапаева, Д. Н. (2021). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИК АТАМАЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ МОРФОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 68.
5. Babajanov, K., & Sapaeva, D. (2022). MEDICAL DISCOURSE AND ITS COMMUNICATIVE SPECIFICITY. Science and innovation, 1(B7), 1394-1396.
6. Sapaeva, D. N. (2023). Compounding in Various Types of Discourses. Nexus: Journal of Innovative Studies of Engineering Science, 2(9), 9-12.
7. Sapaeva, D. (2005). Linguistic peculiarities of medical terminology. школа, 12-17.
8. Сапаева, Д. Н. (2021). ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛИ ДЕРМАТОВЕНЕРОЛОГИК ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА МЕТОФОРИК КЎЧИМ. In КУЛЬТУРОЛОГИЯ, ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ И ФИЛОЛОГИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ВЗГЛЯДЫ И НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 41-45).